

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnalı bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrdagi 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYeva T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

S.MAHMUDOVA

“Turg‘unoy Egamberdiyeva – Farg‘onalik ayollarning gultojidir”	6
	PEDAGOGIKA

X.Kadirov, B.Xamdamov

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishda media kompetentlikning dolzarbligi va ahamiyati	8
---	---

L.Yo‘Idosheva

Muzeylarda turli xil mashg‘ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	13
---	----

M.Alimjanova

Ta’limning jarayonida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish usullari, metodi va vositalari	17
--	----

B.Xaydarov

Odam tana tuzilishini tahlil qilish.....	23
--	----

G.Absalamova

Mishel monten “tajribalar” asarida oilada farzand tarbiysi tushunchasi.....	28
---	----

F.Mirzayeva

Oiladagi shaxslararo munosabatlar – jamiyatning tinchlik garovi.....	32
--	----

IQTISODIYOT**T.Xaydarov, B.Karimov**

Tadbirkorlik mahalladan boshlanadi	36
--	----

FALSAFA, SIYOSAT**N.Hakimov, D.Amridinova**

Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari.....	40
---	----

I.Raximov

O‘zbek mahallasi: tarix va hozirgi zamon ko‘p millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari	48
---	----

R.Isamutdinov

“Xavfsiz mahalla” tushunchasi va uning mohiyati.....	54
--	----

S.Xoliqov

O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining milliy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha vazifalarining o‘ziga xos jihatlari	57
---	----

TARIХ**M.Xurramov**

1991 - 2016 yillarda O‘zbekiston-Qozog‘iston munosabatlarda Markaziy Osiyo integratsiyasi muammolari	61
---	----

R.Arslonzoda

Istiqlol yillarda O‘zbekistonda arxiv ishi huquqiy asoslarining yaratilishi	69
---	----

I.G‘ulomov, Z.Kasimova

O‘zbekiston SSR aholisini ro‘yxatga olish	76
---	----

G.Haydarov

Farg‘ona vodiysi aholisi ijtimoiy turmush sharoitlarini yanada yuksaltirishda halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari tarixi	83
--	----

G.Dadamirzayeva

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Farg‘ona viloyati artellarining faoliyati	88
---	----

A.Aduvali

Shokir Sulaymon yurt taraqqiyotiga xizmat qilgan Turkiston yoshlarining faol vakili.....	93
--	----

N.Komilov

Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o‘rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	98
--	----

M.Darmonova

“Katta qirg‘in”ning yosh qurboni.....	103
---------------------------------------	-----

L.Sokolova

Farg‘ona vodiysi: ustozga bag‘ishlanish marosimining shakllari	107
--	-----

O.Zaripov

“Tarjimon” gazetasida Turkistonda yer-suv masalalarining yoritilishi	113
--	-----

“KATTA QIRG‘IN”NING YOSH QURBONI**ЮНАЯ ЖЕРТВА «БОЛЬШОГО ТЕРРОРА»****YOUNG VICTIM OF THE "GREAT TERROR"****Darmonova Mashhura Adiljon qizi¹****¹Darmonova Mashhura Adiljon qizi***O'zFA Tarix instituti bo'lim boshlig'i***Annotatsiya**

XX asrning 20-yil oxirlaridan boshlab sovet hokimiyatining qatag'on siyosati kuchayib bordi. Buning natijasida Turkistonning milliy ziylolari va ma'rifatparvarlari turli millatchilik bahonalari bilan ayblanib tergovga tortildi. Maqolada ana shunday stalincha qatag'on siyosatining yosh qurboni, o'tgan asrning boshlarida o'zbek adabiyotining iste'dodli shoiri Usmon Nosir hayot yo'li, pedagogik faoliyati, ijodi, ma'naviy merosi va taqdiri tahlil qilinadi. Sovet hukumati yillarida uning ijodidan mafkura targ'ibotiga xizmat qiluvchi g'oya sifatida foydalanib, buzib ko'rsatildi. Mustaqillik yillarida shoirning ijodi asl mohiyatini topdi.

Аннотация

С конца 1920-х гг. усилилась репрессивная политика советского правительства. В результате национальная интеллигенция и просветители Туркестана подверглись расследованию под разными националистическими предлогами. В статье анализируются жизнь, педагогическая деятельность, творчество, духовное наследие и судьба юной жертвы такой сталинской политики репрессий, талантливого поэта узбекской литературы начала XX века Османа Насыра. В советское время его работы искали, используя как инструмент идеологической пропаганды. В годы независимости творчество поэта обрело свою истинную суть.

Abstract

From the end of the 1920s. the repressive policy of the Soviet government intensified. As a result, the national intelligentsia and enlighteners of Turkestan were investigated under various nationalist pretexts. The article analyzes the life, pedagogical activity, creativity, spiritual heritage and fate of the young victim of such a Stalinist policy of repression, the talented poet of Uzbek literature of the early twentieth century, Osman Nasyr. In Soviet times, his work was distorted, using it as an instrument of ideological propaganda. During the years of independence, the poet's work acquired its true essence.

Калим сўзлар: Usmon Nosir, “Katta qirg'in”, ma'rifatparvar, siyosiy qatag'on, Yormat Maxsum, jadidchilik harakati, qatag'on qurboni, shoiri.

Ключевые слова: Усман Насыр, «Большой террор», просвещивающий, политические репрессии, Ермат Махсум, джадидское движение, жертва репрессий, поэт.

Key words: Usman Nasyr, "Great Terror", enlightener, political repression, Yermat Makhsum, Jadid movement, victim of repressions, poet.

KIRISH

Bundan 78 yil muqaddam 9 mart kuni o'zbek halqi o'zining mard, vatanparvar farzanlaridan bo'lgan yana bir yorqin iste'dodidan ayrılgan...

Sovet imperiyasining siyosiy qatag'onlarning eng avj nuqtasi 1937-1938-yillardagi “Katta qirg'in” jarayoni bo'lib, SSSR NKVD tomonidan 1937-yil 30-iyulda tasdiqlangan №00447 raqamli mutlaqo maxfiy buyruqqa [1] ko'ra, qatag'on 5 avgustda “barcha respublikalar va viloyatlarda, O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston SSR”da boshlanishi lozim bo'lgan. Lekin qatag'on mashinasi iyul oyining o'rtalaridayoq ishga tushirib yuborilgan. Natijada boshqaruv, ziylolilar, ulamolar, hattoki oddiy insonlar ham qatag'on domiga tortilganlar. Ularning ichida o'zbek adabiyotiga chaqmoqdek kirib kelgan otashin shoir Usmon Nosir ham bo'lgan. Prezidentimiz so'zlari bilan aytganda, “Usmon Nosir ayni ijodiy kuch-quvvatga to'lgan 25 yoshida qamalib, qatag'on qilindi. Chunki mustabid tuzum bunday millatparvar, vatanparvar insonlarni o'zining eng ashaddiy dushmani, deb hisoblar edi” [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Usmon Nosir faoliyati va ijodiga oid ADABIYOTLAR hamda manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu masalaga adabiyotchi olimlar va shoirning yaqinlari tomonidan murojaat etilgan. Biroq, ayrim tadqiqotlarda Usmon Nosirning faoliyatiga bir tomonlama yondashuvlar kuzatiladi. XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyotini yaxshi tadqiq etgan akademik Naim Karimov Usmon Nosir hayoti va faoliyati hamda

taqdirini yoritishda tarixiy hujjatlardan keng foydalanganligi, shoirning she'rlari orqali qiyosiy tahlil etilganligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, 1872-yilda Abubakir Rajabiy tomonidan Usmon Nosir faoliyati va ijodi o'rganildi. Ushbu asarda sovet mafkurasi ustunlik qilsada, undagi ma'lumotlardan maqolani yoritishda foydalanildi. Shuningdek, maqoladagi tarixiy jarayonlar, jumladan, qatag'on bo'lganligi va umrining so'nggi davrlarini ochib berishda bir qator arxiv manbalari hamda tarixiy ADABIYOTLAR iste'molga kiritildi, qiyosiy tahlil etildi. Ishning mazmunli bo'lishi uchun o'rganilgan ma'lumotlar tizimli va davriy izchillikda yoritildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Usmon Nosir 1912-yil 13-noyabrda Namangan shahrining Chuqur ko'cha dahasida tug'ilgan. Uning otasi Mamatxo'ja kosib hunari bilan ro'zg'or tebratgan. Onasi Xolambibi ziyolilar oilasida tug'ilgan. Usmon Nosir 4 yoshligida otasi Mamatxo'ja vafot etgan. Shundan so'ng Xolambibi va Usmon tog'asi Abdurahmon domlaning uyida yashaganlar. Yosh Usmon onasining "Tohir va Zuhra", "Shirin va Shakar", "Go'ro'g'li" kabi halq dostonlari va ertaklarini eshitib ulg'aygan. Shu tariqa, unda halq og'zaki ijodiga havas va muhabbat shakllangan[3, 5].

Xolambibi asli qo'qonlik savdogar Nosir hoji Masodiqov qistovi bilan 1921-yili unga turmushga chiqqan. Ma'rifatparvar, yangiliklarga intiluvchi kishi sanalmish Nosir hoji Usmonni o'z qaramog'iga oladi. Shoiring Usmon Nosir taxallusi shu o'gay ota ismiga nisbatan qo'yilgan.

Oilada Ravzaxon ismli qiz farzand tug'ilgan va ular Qo'qonga ko'chib ketganlar. Usmon Nosir 1921-1924 yillarda mazkur shahardagi boshlang'ich maktabda o'qigan. Ushbu – "Yangi hayot" maktabi Farg'ona jadid namoyondalarining yirik vakillaridan bo'lgan Po'latjon domla tomonidan ochilgan edi. Po'latjon domla XX asr boshlaridagi Qo'qon ma'rifatparvarlik harakatining yirik vakillaridan biri bo'lib, yangi usul muktablarini tashkil etish va bolalarga ta'lif berishda jonkuyar va millat sevar kishilaridan hisoblangan. Usmon Nosir maktabda chapaqayligi va iqtidori bilan boshqa bolalardan ajralib turgan.

Usmon Nosir 1929 yilgacha ikkinchi bosqich maktab-internat "Dor ush-shafaqa"da tahsil olgan. Ushbu maktabga 23 yoshidan maorif ishlari bilan shug'ullangan, taraqqiyatparvar muallim, Qo'qon jadidlаридан biri Abduvahob Ibodiy mudirlik qilgan.

5-sinfdan boshlab adabiyot to'garaklariga qatnashgan Usmon 6-sinfdaligidayoq kichik she'rlar yoza boshlagan va ularni kundalik daftariga ko'chirib borgan. Yosh shoir internatga tez-tez kelib turadigan Hamzaga o'z she'rlarni ko'rsatib borgan va undan qimmatli maslahatlar olgan. Usmonning 6-7 sinflarda yozgan "Paxtakor", "Haqiqat qalami", "Keng yo'lda", "Bahor" kabi bir qator she'rlari maktabda chiqadigan "Bizning ko'zgu" devoriy gazetasida e'lon qilingani ma'lum.

Ikkinci bosqich maktabida Usmon Nosirga jadidchilikning ko'zga ko'ringan namoyandalardan biri, tilshunos olim Ashurali Zohiriy dars bergen va uning ijodkor sifatida shakllanishiga katta ta'sir o'tkazgan. Zehni kuchli Usmon Nosir o'z ona tilisidan tashqari rus tilini hamda fanlar bo'yicha bilimlarni ham yaxshi egallagan. Shuningdek, katta va kichik she'rlari bilan matbuotda ham ishtirok eta boshlagan. Chunonchi Usmon Nosirning "Haqiqat qalami" nomli she'ri 1927-yili "Yangi yo'l" jurnalida chop etilgan [4, 46].

1929-yili Samarqandda "Qizil qalam" adabiy uyushmasi tuzilgan bo'lib, uning bo'limlari boshqa shaharlar, jumladan, Qo'qonda ham ochila boshlangan. "Yangi Farg'ona" gazetasining tahririyati qoshida tashkil etilgan "Qizil qalam" hay'atida, shu gazeta muharriri Lutfulla Olimiyidan tashqari, Abdulla Rahmat, Muhiddin Xayrullaev, Muxtor Muhammadiy, Sharif Rizo va Usmon Nosir ham bo'lganlar [5, 18-32]. Ular tashabbusi bilan turli ma'rifiy tadbirlar tashkil etilgan. Usmon Nosir shu adabiy doiralarda har tomonlama tanilib, ijod qalami yanada o'tkirlanib borgan.

1929-yilning yozida Usmon Nosir shahar maorif bo'limidan kelgan taqsimot bo'yicha Qo'qondagi ta'lif-tarbiya kursiga ilmiy mudir va o'qituvchi etib yuborilgan. Biroq o'sha paytda bo'lgan bir tarixiy voqeа uning rejalarini o'zgartirib yuborgan.

...Shu yillari Farg'ona vodiysida mustamlakachilik va milliy ozodlik uchun qurolli harakatlar bir oz susaygan, lekin qishloqlarda gohida halq qo'zg'oloni bilan turgan. Sovet hokimiysi mustamlaka zulmiga qarshi kurashlar yanada avj olib ketmasligi va halqni ushbu milliy ozodlik uchun birlashgan guruhlarga qo'shilmasligi uchun sovet hokimiysi mehnatkashlar, beva-bechoralar manfaatini ko'zlovchi, yurt va milliy ozodligi uchun kurashganlar esa "bosmachilar", shu halqparvar, kambag'alparvar, adolatparvar davlatning kushandasasi, degan fikrni ularning ongiga quyish maqsadida, 1929 yil yozida "O'zbek davlat kinosi" studiyasi Farg'ona vodiysiga "So'nggi bek" kinoasarini suratga olishga borganlar.

Turkiston fronti qo'mondonligi va bolsheviklar qo'rleshishlarga qarshi shafqatsiz jazo choralarini qo'llashgan. RSFSR harbiy va dengiz ishlari halq komissari L.Trotskiy 1922-yil iyun oyida Farg'ona vodiysiga kelganida qo'rleshishlarni ayovsiz qirish to'g'risida maxsus ko'rsatma bergen. Ushbu ko'rsatmaga muvofiq, Farg'ona viloyati Davlat siyosiy boshqarmasida (GPU) tuzilgan rejaga vodiyning

TARIX

eng mashhur qo‘rboshilaridan Yormat Maxsumni qo‘lga olish hamda uning guruhini qirib tashlash belgilangan [6, 143].

Harbiy razvedka keltirgan ma’lumotga ko‘ra, Yormat qo‘rboshi kinochilarning vodiyliga kelgani va “bosmachilar” to‘g‘risidagi kino asar suratga olmqchi bo‘lganlardan darak topgan. “Bosmachilar” orasiga qo‘yilgan ayg‘oqchilar chekistlarga o‘z ko‘zi bilan ko‘rish uchun suratga olish maydoniga kelishi haqida darak bergenlar.

Yormat Maxsum keng mushohadaga va o‘tkir aql-idrokka ega bo‘lib, “so‘nggi bek” uning o‘zi ekanligini sezgan. Shuning uchun ham u haq va adolat yo‘lida olib borayotgan harakatini kinochilar qanday talqin qilmoqchilar, degan masala bilan qiziqqan. Kinoning halq ommasiga ta’sir kuchini yaxshi bilgan qo‘rboshi Yormat Maxsum agar kinochilar uning obrazini buzib tasvirlayotgan bo‘lsalar, bunday tuhmatdan iborat fil‘mnинг yuzaga kelishiga to‘sinqilik qilmoqchi bo‘lgan.

Kinoning “bosmachilar qarorgohi” deb atalgan sahnasini suratga olish jarayonida Yormat Maxsum va u bilan birga besh-o‘n yigitlar sahnaga yaqinlashib kelganlar. Eskadron zudlik bilan otlarga minib, ularga qarshi harakatga o‘tganlar. “So‘nggi bek” fil‘mining asosini tashkil etgan quvish va otishuv jarayoni hayotiy tasvirlangan. Kino haqidagi tarqalgan bu xabar qo‘qonlik yoshlarni, jumladan Usmon Nosirni ham hayratlantirgan.

Mustabid sovet hokimiyyati davrida kommunistik mafkuraning tazyiqi bilan yurt mustaqilligi va milliy ozodlik kurashchilari “qaroqchi”, “kallakesar”, “halq dushmani” va “bosmachi” sifatida noto‘g‘ri talqin etilishi, Yormat Maxsumning mardlarcha sahnaga kirib kelishi, o‘z yurti ozodligi uchun kurashidan ta’sirlangan Usmon Nosir o‘z oldiga birinchi hamda haqiqatni yorituvchi o‘zbek dramaturglaridan bo‘lish vazifasini qo‘ygan va 1930-yili shoir Temur Fattoh bilan birga Moskvadagi Kinematografiya institutining Stsenariy fakultetiga o‘qishga kirgan. Biroq bir yildan so‘ng kasal bo‘lib qolganligi bois Qo‘qonga qaytib kelgan.

1931-1932-yillarda Qo‘qon O‘r dasidagi Dehqonlar uyida tashkil etilgan muallimlar tayyorlovchi olti oylik kursda o‘qituvchi bo‘lib faoliyat olib borgan. Dastlab til va adabiyotdan dars bergan, keyin ilmiy mudir bo‘lib ishlagan. Bu davrda o‘zbek tili yangi alifboga ko‘chirilgani sababli nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar oldida ham jiddiy qiyinchiliklar paydo bo‘lgan edi. Usmon Nosir yangi alifboga ko‘chish jarayonining engil, qiyinchiliklarsiz o‘tishiga ko‘maklashish, qishloq muammolarining yangi alifboda ham savodli bo‘lib qolishlarini ta’minlashni til va adabiyot o‘qituvchisi sifatida o‘z oldiga qo‘yilgan muhim vazifa deb bilgan.

1932-yilning kuzida Usmon Nosir Samarqanddagi Pedakademiyaning (hozirgi SamDU) filologiya fakultetiga o‘qishga kiradi [7, 14]. Talabalik yillari u uchun hayot va adabiyotni o‘rganishda katta bir maktab bo‘lgan. She’rlari Samarqandda nashr etiladigan gazetalarda bosilgan. Shuningdek, Qo‘qon adabiy muhiti bilan ham aloqada bo‘lganligi sababli, Qo‘qonda chiqadigan “Yangi Farg‘ona” gazetasida uning yangi she’r, doston, ocherk, hikoya va maqolalari e’lon qilib borilgan. Uning ilk ijod namunalari nafaqat ziyorilar, balki omma orasida ham keng tarqalgan.

1935-yili Toshkentga ko‘chib kelib [8], “Yosh leninchi” gazetasiga ishga kirgan Usmon Nosir poytaxtadgi atoqli shoir va yozuvchilar bilan yaqindan hamkorlik qila boshlaydi, bu erdagagi adabiy muhitga kirib boradi.

Usmon Nosir 1927-yildan 1937-yilgacha bo‘lgan davr oralig‘ida ijod qilib, qisqa vaqt ichida o‘zining yuksak iste’dodini ko‘rsata olgan. O‘n yillik ijodiy faoliyati davomida 5 ta she’riy kitobi, 2 ta dostoni va bir qator dramatik asarlari nashr etilgan, dramalari sahnaga qo‘yilgan, uning Pushkin, Lermontovning mashhur dostonlarini o‘zbek tiliga ulkan mahorat bilan tarjima qilgan.

1927-1932-yillarda yozgan she’r va dostonlarini “Quyosh bilan suhbat” to‘plamiga kiritgan. 1935 yili 2928 misradan iborat “Yurak” to‘plami yaratilgan. Uning bir qancha she’rlari rus tiliga, “Naxshon” dostoni rus va arman tillariga tarjima qilingan.

Usmon Nosir shoir va tarjimon sifatidagina emas, mohir dramaturg sifatida ham faoliyat olib borgan. Uning “Zafar” (1929), “Nazirjon Halilov” (1930), “Dushman” (1931), “So‘nggi kun” (1932) kabi p‘esalarni yozgan [9, 14-28]. 1937 yilning fevral oylarida “Atlas” p‘esasi yoshlar teatriga sahnalashtirish uchun taqdim etilgan bo‘lsa-da, sahna yuzini ko‘rmagan. Shuningdek, “Go‘ro‘g‘li” p‘esasi ham boshqa e’lon qiliinmagan asarlari singari yo‘qolgan.

1937-yil iyun oyining o‘rtalarida Usmon Nosir she’riyati qatag‘on etila boshlangan, jumladan, o‘zining adabiy asarlari mustamlaka hukumatiga qarshi millatchilik g‘oyalalarini muntazam ravishda ilgari surganligi, u vatanparvarlik ruhida she’rlar yozib, ularni yashirin tarzda tarqatganligi, jadid ma’rifatparvarlari bilan mafkuraviy va tashkiliy aloqada bo‘lib, milliy ozodlik uchun tashviqot olib borganligi, yor-birodarlar davrasida hamda omma o‘rtasida sovet hokimiyatining olib borayotgan

siyosatiga qarshi qaratilgan bedob fikrlarni bayon qilganligi sababli, uning "aksilinqilobiy millatchilik xatti-harakatlari"ni o'rganish bo'yicha komissiya tuzilgan [10].

Komissiya qariyb bir oy davomida Lavrentev singari razil odamlar yordamida Usmon Nosirga qarshi "mish-mishlar" to'plagan va 12 iyul kuni "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hay'atining yig'ilishida "Usmon Nosir ishi" ko'rib chiqilgan. Yig'ilishda Usmon Nosir ishini tekshirgan komissiya xulosalari o'qib berilgan. Unda so'nggi vaqtlar Usmon Nosir ijodida aksilinqilobiy millatchilik ruhi ochiqdan-ochiq ko'rina boshlagani, hatto u ma'rifatparvar olim va shoir Abdulla Alaviyga bag'ishlab she'r yozganligi qayd etilgan.

Shuningdek, "Usmon Nosir ishi"ga bag'ishlangan yig'ilishda Ozarbayjondan O'zbekistonga surgun qilingan Rizo Qorashoh degan "mashhur panturkist" bilan aloqada bo'lgani va u Usmon Nosirning sovetlarga qarshi harakatiga ustoz, Cho'lpox esa Nosirning aksilinqilobiy ijodiga ta'sir qiluvchi, unga yo'l ko'rsatuvchi rahbar ekani, "halq dushmani" Rizo Qorashoh, "millatchi" Cho'lpox va Usmon Nosirni bir-biriga bog'laydigan umumiy manfaat borligi va bu manfaat sovet hokimiyatiga qarshi dushmanlik ekanini isbot etishga ehtiyoj yo'qligi aytildi.

Yuqoridagi ayblar bilan, 1937-yil 12-iyulda Usmon Nosir O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi rayosati yig'ilishida uyushma a'zoligidan chiqarilgan va 13 iyul kuni 25 yoshli Usmon Nosir O'zbekiston Ichki ishlar halq komissariati xodimlari tomonidan hibsga olingan [11, 58]. 1938-yil 5-oktyabrda Usmon Nosir o'n yilga ozodlikdan mahrum etilib, mehnat-tuzatuv jamloqlariga yuborilgan.

XULOSA

Umuman olganda, Usmon Nosir 1941-yilning oxirlarida Kemerovo viloyati Mariinsk shahriga og'ir ahvolda kelib, siyosiy mahbuslar yashagan 6-jamloqqa tushgan. Sho'r o'pka sili kasaliga chalingani sababli umrining so'nqgi kunlarini jamloq kasalxonasida o'tkazgan.

1944-yil so'nggida professor Borovkov, shoir Maqsud Shayxzoda va "Qizil O'zbekiston" gazetasi bosh muharriridan tarkib topgan komissiya Usmon Nosirni aybsiz, deb topgan. Biroq kech bo'lgan, millatimizning yosh, oloyli va novob iste'dodli shoiri 1944-yilning 9-mart kuni yafot etqan edi.

ADABIYOTLAR:

- АДАВУЧ СЕРЛІКТЕРДЕ

 - Приказ НКВД СССР №00447 «Об операции по репрессированию бывших кулаков, уголовников и других антисоветских элементов». 30.07.1937. (Order of the NKVD of the USSR No. 00447 "On the operation to repress former kulaks, criminals and other anti-Soviet elements." 07/30/1937).
 - Shavkat Mirziyoevning namangalik saylovchilar bilan uchrashuvida so'zlagan nutqi / Usmon Nosirning 110 yilligi nishonlanadi (Shavkat Mirziyoyev's speech at the meeting with Namangan voters / 110th anniversary of Usmon Nasir will be celebrated). <https://yuz.uz/news/usmon-nosirning-110-yilligi-nishonlanadi>
 - Abubakir Rajabiy. Usmon Nosir. – Toshkent, 1972. (Abubakir Rajabiy. Usmon Nosir. - Tashkent, 1972).
 - Naim Karimov. Usmon Nosir. – Toshkent, 1993. (Naim Karimov. Usmon Nosir. - Tashkent, 1993).
 - Naim Karimov. Usmon Nosirning so'nggi kunlari. – Toshkent, 1994. (Naim Karimov. The last days of Osman Nasir. - Tashkent, 1994).
 - Q. Rajabov, M. Haydarov. Turkiston tarixi (1917-1924 yillar). – Toshkent, 2002. (Q. Rajabov, M. Haydarov. History of Turkestan (1917-1924). - Tashkent, 2002).
 - Abubakir Rajabiy. Usmon Nosir. – Toshkent, 1972. (Abubakir Rajabiy. Usmon Nosir. - Tashkent, 1972).
 - Nodira Rashidova. Usmon Nosir: "Men hayotga qaytishim kerak..." // "Yoshlik" jurnali. 1988 yil. 9-son. (Nodira Rashidova. Osman Nasir: "I have to come back to life ..." // "Yoshlik" magazine. 1988. Number 9).
 - Usmon Nosir. Tanlangan asarlar. Ikki tomlik. – Toshkent, 1970. 2-tom. (Usmon Nosir. Selected works. Two volumes. - Tashkent, 1970. Volume 2).
 - Tarix instituti joriy arxiv. 1-daftар. (Current archive of the Institute of History. Notebook 1).
 - Усман Насыр (Историко-библиографическая летопись посвященная 100 летию со дня рождения Усмана Насыра). – Ташкент, 2012. (Usman Nasyr (Historical and bibliographic chronicle dedicated to the 100th anniversary of the birth of Usman Nasyr). - Tashkent, 2012).

(Taqrizchi: B.Usmanov-tarix fanlari doktori, dotsent)